

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA  
VOLEYBOL SPORTINI O'RGATISH USLUBIYATI

**Sattorova Dinara Botir qizi**

*Termiz davlat pedagogik insutitutining*

*Jismoniy madaniyat fakulteti*

*xotin-qizlar yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Kelajagimiz xisoblangan o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashda albatta jismoniy tarbiya va sportni tutgan o'rni beqiyosligi, umumta'lim maktablarida sport mashg'ulotlarini samarali va qiziqarli tarzda tashkil etish, darsdan tashqari vaqtlarda volleybol mashg'ulotlarini tashkil etish haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *volleybol, jismoniy tarbiya, e'tibor, imkoniyat, samara, mustaqillik, tarbiyalash, diqqat-e'tibor.*

Mustaqillikka erishilgandan keyin yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratildi. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash bugun jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab diqqat-e'tiborini yosh avlod tarbiyasiga qaratib kelmoqda. Mamlakatimizda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni qabul qilinishi, "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etilishi, ularni hayotga tadbiiq etish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqilganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunining hayotga tadbiiq etilishi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va muhim bo'lagi bo'lgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universaiada" musobaqalarining tashkil etilishi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining tuzilishi soha rivojinini yangi bosqichga ko'tardi.

Respublikamizda ta'lim soxasi ni yanada mustahkamlash, kadrlar tayyorlashda zamonaviy talablar asosida innovatsion texnologiyalar va pedagogik mahorat jarayonlaridan maqsadli foydalanish samaralarini yanada yuqoriga ko'tarish talablari kun sayin oshib bormoqda. Kelajagimiz xisoblangan o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashda albatta jismoniy tarbiya va sportni tutgan o'rni beqiyosdir.

Maktab o'quvchilarining sog'lom va barkamol bo'lib shakllanishida jismoniy tarbiya darslarining roli beqiyosdir, chunki jismoniy madaniyat – o'quvchilarda o'ziga, o'z tanasiga bo'lgan ongli munosabatni, sog'likni mustahkamlashga bo'lgan ehtiyojni shakllantiruvchi, irodaviy hamda axloqiy sifatlarni tarbiyalovchi yagona o'quv fanidir. Lekin o'quvchilarda jismoniy madaniyatga va sportga bo'lgan yaxshi munosabatning

shakllanishi ko'p jihatdan o'quv jarayonini samarali tashkillashtirishga va aniq qo'yilgan pedagogik vazifalarga bog'liq.

Sport o'yini - tarixan rivojlangan ijtimoiy hodisa, odamlarga xos bo'lgan sport faoliyatining mustaqil turidir [10, 11]. Bu o'yin, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini bilish, sport, dam olish, umumiy jismoniy rivojlanish yoki ijtimoiy ta'lim vositasi bo'lishi mumkin. Jismoniy rivojlanish uchun qo'llaniladigan sport o'yinlari turli xildir, ammo ularni baribir sport va harakat faolligiga ajratish mumkin. Sport o'yinlari harakatli o'yinlarning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Shu bilan birga sport o'yinlari harakatli o'yinlardan yagona qoidalar, o'yin davomiyligi, ishtirokchilarning ma'lum bir tarkibi, maydon

larning o'lchami va tartibi, uskunalari va inventarlar va boshqalar bilan farq qiladi, bu esa musobaqalarni sifatli o'tkazishga imkon beradi. Maktab davridan boshlab o'quvchilarning ma'naviy, jismoniy va funksional shakllanishida jismoniy mashg'ulotlarning o'rni benihoya ulkan. Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari vaqtlarda o'tkazilgan sport mashg'ulotlarida volleybol o'yinini o'rgatish uslubiyatlaridan foydalaniladi. Volleybol o'yini juda qiziqarli mashg'ulotlardan biridir, maktab o'quvchilarining orasida bu o'yinni sevib o'ynaydigan o'quvchining o'zi bo'lmas kerak.

Sport o'yinlari musobaqalari ishtirokchilardan ko'proq jismoniy kuch va irodaviy sifatlarni talab qiladi. Sport o'yinlarida ikkita juda muhim omil ob'ektiv ravishda birlashtiriladi: bir tomondan, bolalar ushbu raqobatbardoshlikdan estetik va axloqiy qoniqish oladi, atrof-muhit haqidagi bilimlar zaxirasini kengaytiradi, boshqa tomondan ular amaliy mashg'ulotlarga qo'shiladi. Bularning barchasi shaxsiyatning shakllanishiga hissa qo'shadi [15, 16].

Shunday qilib sport o'yinlari-bu har tomonlama jismoniy tayyorgarlikka, o'yin o'rganishning xarakter xususiyatlari va funksiyalarini yaxshilashga qaratilgan murakkab samarali ta'lim vositalaridan biridir.

Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport ishlarining asosiy maqsad va vazifalari bugungi kunda o'quvchi yoshlar o'rtasida jismoniy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarziga tayyorgarlikni shakllantirish, sport mashg'ulotlariga qiziqishni rivojlantirish, jismoniy mashqlarni muntazam bajarish, axloqiy, hissiy, intellektual, ijtimoiy-madaniy va estetik shaxsiyatni, ijodiy qobiliyat va kognitiv ehtiyojlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgandir [2].

Harakatli o'yinlar maktabda jismoniy tarbiya metodi va vositasi sifatida jismoniy tarbiya darsida hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda keng qo'llaniladi. Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya bo'yicha maktab dasturiga mos ravishda 1-9-sinflarda gimnastika, engil atletika, sport o'yinlari, kurash va suzish bilan birga qo'shib olib boriladi. Jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlar dastur talablariga mos ravishda ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish vazifalarini hal etishi uchun foydalaniladi. Jismoniy tarbiya darslarida o'tkaziladigan o'yinlarni boshqa mashg'ulot

shakllaridan farqi shundaki, bunda diqqatni eng muhimi o'yinning ta'limiy va sog'lomlashtirish tomoniga, shuningdek, jismoniy tarbiya sifatiga ham qaratish kerak.

Shuni ham tan olish kerakki, maktab o'quvchilari uchun musobaqa ishtirokchilari o'rtasida shiddatli raqobat, g'oliblarning faqat kichik bir guruhini rag'batlantirish, sport musobaqalarini tashkil etishning an'anaviy modeli kabi jarayonlar ancha jiddiy kamchiliklarga egadir. Bu ishtirokchilarning har qanday yo'llar va usullar bilan g'alaba qozonish hissini, boshqalardan ustunligini ochiq ko'rsatish, shon-shuhratga erishish, g'alaba bilan bog'liq moddiy manfaat olish, qimmatbaho sovrinlarni qo'lga kiritish istagini tug'diradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

Абдуллаев, Я. М. (2021, October). Особенности развития физических качеств у учеников старшего школьного возраста средствами подвижных игр. In "Online-conferences" platform (pp. 523-525).

Абдуллаев, Я. М., & Турдимуродов, Д. Й. (2020). Ўсмир ёшдаги ўқувчиларда иродавий сифатларни жисмоний тарбия воситалари орқали ривожлантириш. Современное образование (Узбекистан), (9 (94)), 56-62.

Абдуллаев, Я. М., & Юлдашевич, Т. Д. (2020). Создание педагогических условий в формировании волевых качеств у учеников начальных классов. In Colloquium-journal (№. 24 (76), pp. 36-38). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості.

Абдуллаев, Я. М. (2012). Развитие физического воспитания подрастающего поколения в непрерывном образовании. Молодой ученый, (11), 381-383.

Abdullaev, Y. (2021). Forms and methods of developing the use of folk movement games in high school students. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2021(2), 73-79.

Alikulovich, M. K. (2022). Mobile Games on the Water as a Means of Developing the Physical Qualities of School Children. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 783-786.

Mahkamovich, A. Y. (2022). Mobile games for school children. Modern Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 202-205.

Mahkamovich, A. Y. (2022). Technology of using outdoor games in the development of physical qualities of junior schoolchildren. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(04), 516-520.

Makhkamovich, A. Y. (2021). Physical education of senior schools by means of folk moving games. European Scholar Journal, 2(11), 70-72.